

**“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid
DAVLAT DASTURI**

T/r	Topshiriqning mazmuni	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas’ul ijrochilar	Ijro holati
“O‘zbekiston -2030” strategiyasining Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi (1-ilova) 28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish					
1.	78. Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizimi orqali onlayn monitoring qilishni yo‘lga qo‘yish.	“Yangiish.mehnat.uz” axborot tizimini takomillashtirish orqali aholi bandligi dasturini ijrosi bilan bog‘liq jarayonlarni onlayn kuzatib borish imkoniyatini yaratishda ishtirok etish.	2024-yil iyul	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Statistika agentligi, Soliq qo‘mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi	Bajarilgan. Ishchi guruh ishlarida Statistika agentligidan ishtirok etish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga nomzod taqdim etildi (26.03.2024 yildagi 01/3-12-09-67-sonli xat). Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga Texnik yo‘riqnomani taqdim etishi so‘ralgan xat chiqarildi (08.07.2024 yildagi 01/3-12-09-161-sonli xat).
2.	79. Samarqand viloyati Samarqand tumani misolida ishsiz aholini aniqlashning yangi mexanizmini ishlab chiqish.	1. Samarqand tumani misolida ishsiz aholining manzilli ro‘yxatini shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqishda ishtirok etish.	2024-yil aprel	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Statistika agentligi, Soliq qo‘mitasi	Bajarilgan. Ishchi guruh ishlarida Statistika agentligidan ishtirok etish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga nomzod taqdim etildi (26.03.2024 yildagi 01/3-12-09-67-sonli xat).
		2. Ishsiz aholining manzilli ro‘yxatini shakllantirish uslubiyotini tajriba sifatida Samarqand tumanida amalga oshirishda ishtirok etish.	2024-yil may-iyun		Bajarilgan. Mazkur vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida tuziladigan ishchi guruh ishlarida Statistika agentligidan ishtirok etish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga nomzod taqdim etildi (26.03.2024-yildagi 01/3-12-09-67-sonli xat). Shuningdek, xalqaro tavsiyalar va Samarqand tumanida o‘tkazilgan kuzatuv natijalari asosida

T/r	Topshiriqning mazmuni	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas’ul ijrochilar	Ijro holati
					takliflar tayyorlanib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga ishchi tartibda taqdim etildi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 23 iyundagi 01/00-03/10-6180-son xati orqali amalga oshirilgan ishlar yuzasidan to‘liq ma’lumot Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi.
		3. Mazkur tajribani respublikani boshqa hududlarida joriy etish bo‘yicha takliflarni tayyorlash.	2024-yil iyul		Bajarilgan. Tajriba tariqasida Samarqand tumanida o‘tkazilgan xatlov natijasida ishsiz fuqarolar va norasmiy sektorda band bo‘lganlarning manzilli ro‘yxati barcha mahallalar kesimida nomma-nom aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda, ishsiz aholining manzilli ro‘yxatini shakllantirish bo‘yicha Samarqand tumani tajribasini respublikaning boshqa hududlarida joriy etish, bunda ushbu jarayonni vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari balansini shakllantirish hamda aholi bandligi va ishsizlik hisobini yuritish metodologiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga (ID-95159) kiritilgan “Ishsiz va ishga joylashtirishga muhtoj aholining va norasmiy bandlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish tartibi” asosida amalga oshirish taklif etiladi. Qaror loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan va O‘zbekiston

T/r	Topshiriqning mazmuni	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas’ul ijrochilar	Ijro holati
					Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Loyihaning qabul qilinishi bilan respublikaning barcha tuman, shaharlarida har chorak yakuni bilan hokim yordamchilari tomonidan xatlov o‘tkazilib, ishsizlar va norasmiy bandlarning noma-nom manzilli ro‘yxatini shakllantirish yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 23 iyundagi 01/00-03/10-7174-son xati orqali amalga oshirilgan ishlar yuzasidan to‘liq ma’lumot Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan.
“O‘zbekiston-2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘rta sinf orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2024 yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati (7-ilova) II BARQAROR IQTISODIY O‘RSTA SINFI ORQALI AHOI FAROVONLIGINI TA’MINLASH					
3.	18. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish maqsadida “Sot yoki tushuntir” tamoyiliga asosan, davlat ulushi mavjud korxonalar sonini kamaytirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	Loyihani ishlab chiqish uchun zarur statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash hamda lohiyani ishlab chiqishda ishtirok etish Loyihada: 1) Davlat ulushi mavjud 2 mingdan ortiq korxona, ularning 1 mingdan ortiq tizim korxonasi hamda 26 ming tadan ortiq davlat muassasasi faoliyatini tahlil qilib, natijalariga ko‘ra, davlat ishtirokidagi korxonalar va muassasalarni quyidagi guruhlarga ajratish: qayta tashkil etiladigan (xo‘jalik	2024-yil noyabr	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kadastr agentligi, Statistika agentligi, Adliya vazirligi.	Bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 23 yanvardagi 03/1-316-son xati asosida kelishish uchun kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha choralari hamda 2024 yilgi Xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori loyihasini Statistika agentligi o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqib taklif va e’tirozlarsiz

T/r	Topshiriqning mazmuni	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
		jamiyatiga, muassasaga, filialga aylantiriladigan yoki qo'shib yuboriladigan); davlat mulkiga egalik qilish mezonlariniga mos kelmaydigan va raqobat rivojlangan sohalarda faoliyat yuritayotgan hamda xususiylashtiriladigan; belgilangan tartibda tugatiladigan istiqbolsiz, faoliyat ko'rsatmayotgan, zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar; 2) davlat ishtirokidagi korxonalar, ularning tarkibidagi korxonalar va davlat muassasalarini qayta tashkil etish, xususiylashtirish va tugatish orqali davlat ishtirokidagi korxonalarni qisqartirish masalalari nazarda tutiladi.			kelishib berilgan.